

BEHBUDIY ASARLARIDA JADIDCHILIK G'YOYALARINING**BADIY- POETIK TALQINI****Hamrayeva Nargiza Hasan qizi**

TISU talabasi.

Shaxnoza Norkulova

Ilmiy rahbar: TISU dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14719603>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek ziyyolisi, ma'rifatparvar jadidlarimizdan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyati, jadidchilik harakatlari, yangi usul maktablari va dramaturgiyasi haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Jadid, yangi usul maktablari, "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi"), "Risolayi jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Kitobat ul astol" ("Bolalar xati"), "Samarkand" gazetasi, "Oyna" jurnali, "Padarkush" dramma.

**ИДЕАЛЫ ДЖАДИДИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ БЕХБУДИ
ХУДОЖЕСТВЕННО-ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ**

Аннотация. В данной статье рассказывается о деятельности Махмудходжи Бехбуди, узбекского интеллектуала, одного из наших просвещенных джадидов, джадидистских движениях, школах нового метода и драматургии.

Ключевые слова: Джадид, школы нового метода, "Рисолайи асбоби савод" ("Книга грамотности"), "Рисолайи джугрофияи умрани" ("Введение в географию населения"), "Китабат уль афтол" ("Детское письмо"), газета "Самарканд", журнал "Ойна", драма "Падаркуш".

**ARTISTIC-POETIC INTERPRETATION OF THE IDEALS OF JADIDISM IN
THE WORKS OF BEHBUDIY**

Abstract. This article describes the activities of Mahmudhoja Behbudi, an Uzbek intellectual, one of our enlightened Jadids, Jadidist movements, schools of the new method and drama.

Key words: Jadid, schools of the new method, "Risolayi asbobi savod" ("Book of Literacy"), "Risolayi jugrofiyai umrani" ("Introduction to Population Geography"), "Kitabat ul astol" ("Children's Letter"), "Samarkand" newspaper, "Oyna" magazine, "Padarkush" drama.

XIX asr so'ngi hamda XX asr boshlarida turkiy tilli millatlar orasida jadid va jadidchilik atamasi keng tarqaldi. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" deganidir. Shu sababli yangilikka intiluvchi, millatni ma'rifatparvarlikka undovchi, yangilik yaratuvchi, taraqqiyat parvar ziyorilarga "jadid" degan nom berildi. Ular olib borayotgan harakat esa "jadidchilik" deb yuritildi.

Bu faoliyatning yuzaga kelishi esa bevosita va bilvosita o'sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitiga borib taqaladi. O'sha davr muhiti va jamiyati tarbiyalagan ko'plab jonkuyar fidoyilar orasida Mahmudxo'ja Behbudiyning borligi esa bizning ham, o'sha davr insonlarining ham yutug'idir.

Chunki Behbudiylardan jadid adabiyotining asoschilaridan birigina bo'lib qolmay "an'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishslash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko'tarilgan. Shuningdek, g'oyaviy nazariy va mafkuraviy shakllanishining xilma-xilligi bilan ajralib turgan davrda millatning taraqqiyotiga bevosita Behbudiylardan ziyolilarning ta'siri yuqori edi. Turkistonda o'sha paytda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadimchilar, jadidchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan "Chig'atoy gurungi" kabi ancha yetuk yig'inlar, ular ilgari surgan ma'rifiy ta'limotlar, nazariyalar mavjud edi.

"Jadidchilik g'oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ohib tashlanadi. Xusuan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar", deya ta'rif beradi o'z izlanishlariga izoh berar ekan filologiya fanlari doktori Begali Qosimov.

Darhaqiqat, uning izlanishlari natijasida Behbudiylardan jadidchilik harakati namoyandalarining keng ko'lamli taraqqiy parvar va ijtimoiy-falsafiy qarashlari ma'rifiy va ma'naviy jihatdan yuksak baholanishini ko'rish mumkin.

Bu yo'lda Behbudiyning yangi usul maktablari ochgani va "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi"), "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" (Aholi geografiyasiga kirish), "Kitobat ul aftol" ("Bolalar xati") kabi maktab darsliklari yaratgani, "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini chiqishini yo'lga qo'ygani ma'lum. Publitsist, din va jamoat arbobi bo'lish bilan cheklanmagan Behbudiylardan mavzusi har davr uchun dolzarbligini yo'qotmagan "Padarkush" dramasini 1911-yilda yozib Markaziy Osiyo dramaturgiyasiga asos soldi. Taniqli o'zbekshunos olim Eduard Olvors bu drama haqida alohida to'xtalib: "Padarkush" gacha mazkur hududda na turkiy, na forsiy tilda drama janrida birorta asar yaratilmagan edi. Bu Behbudiyning adabiyotga qo'shgan eng katta hissasi bo'ldi", deydi.

Drama uch parda, to'rt manzaradan iborat bo'lib, ilmsizlik, tarbiyasizlik, befarqlik va jaholatning qanday oqibatlarga olib kelishi haqidagi kichik asardir. «Padarkush»ning sahna asari sifatidagi o'ziga xos fazilati shuki, muallif zamonasining mudhish va jirkanch illatlarini ochiq namoyish etganligi bilan belgilanadi.

Demak, Markaziy Osiyoda birinchi zamonaviy sahna asari «Padarkush» nomi bilan boshlandi va rivoj topdi. Nomidan anglashilganidek, bu asar otasining qotiliga aylangan farzand fojiasi haqida. Bir qarashda juda jo‘n va oddiy tuyulsada inson chuqur o‘ylasa Behbudiy bu kichik asari bilan nima demoqchilagini oz-oz anglagandek bo‘ladi.

Padarkush — bu beilmlik, befarqlik, jaholat, mutaasiblik dunyoga keltirib, tarbiyalagan inson. Chunki biz bilgan boy o‘zi bilmas va bilishga harakat qilmaydigan va eng achinarlii zurriyodiga o‘zidanda yomonroq taqdirni ravo ko‘rvuchi bir g‘ofil. Behbudiy ta’biri va boyning o‘z tili bilan aytgan so‘zlariga ko‘ra BOY. “Mani xayolimg‘a dunyoning sababi, izzati - boylik.

Oxiratga bo‘lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo‘lur. Chunonchi, biz ko‘ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Mana, Xayrulloga oyinda yetti so‘m beraman, kunduzlari mirzalik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto, uyqum kelguncha xodimlik qilar, kitob ham o‘qub berar. Men o‘zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O‘zim o‘rgaturman.

Shariat ilmini o‘qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga yetar. Mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman”. Yuqorida qisqacha berilgan monolog boyning dunyoqarashi va saviyasini o‘lhash uchun yetarli. Ha, xat-savodi yo‘q, faqat besh mahal namozning duosini yoddan biladigan, harfni tanimaydigan xizmatkorga pul berib kitob o‘qitadigan, ammo pul sanashni do‘ndiradigan, shaharning zo‘riman deb keriladigan boy o‘quvchining hafsalasini pir qilishi aniq. O‘zining ijtimoiy ahvolini va ma’naviy olamini zamondoshlari bergen baho bilan o‘lchaydigan, shariyat ilmi faqat mufti, muazzin va imom bo‘luvchilar uchungina kerak deb hisoblaydiganlar ham borligi achinarli. Ammo yozuvchi o‘sha davr muhitidagi insonlarning hayotini yoritibgina qolmay balki ularning intihosini ham bergenligi o‘quvchini ham millatni ham, uyg‘onishga ilm olishga chorlaydi.

Birinchi pardada boy asosiy obraz sifatida tasvirlanadi, sahnadagi barcha munosabatlarda ishtirok etib, boshqa personajlarni o‘z atrofiga tortgan yagona qahramonga aylanadi. U ushbu pardadagi boshqa xarakterlarga nisbatan ikki marta ko‘p gapiradi. Shunday bo‘lsa-da, Boy o‘z fikri va maslahati bilan ushbu parda oxirida o‘zning “uyqusini keltirgan” Ziyolidek muhim, asosiy siymo emas. Zamonaviy tanqidchilar esa Boyni dramadagi asosiy, markaziy qahramon deb hisoblaydilar. Ikkinci pardaning yetakchi, o‘ziga xos obraqi o‘spirin yigit Davlat. U guruhning g‘oya beruvchi rahbari: birinchi bo‘lib Liza ismini tilga oladi, uning uchun pul topish rejasini aytadi va unga boshchilik qiladi. Toshmurodni o‘z ota-onasiga nisbatan bosqinchilik qilishga ham Davlat da’vat etadi. Uchinchi pardaning birinchi ko‘rinishidagi ziddiyat asarda yaxshi tasvirlangan.

Lekin Behbudiy to‘rtinchi ko‘rinishda Tangriqul va Toshmurod obrazlarini va barcha pantomimik harakatlarni, o‘n ikki ishtirokchidan sakkiztasini harakat hukmron bo‘lgan manzara – mayxonaga olib keladi. Ziyolining uzundan-uzoq nutqi ogohlantirish sifatida allaqachon aytilgan bo‘lsa-da, u deyarli dramaning oxirida yana takrorlanadi.

Behbudiy boyni bekorga jabrdiyda qilmadi. Boy bu shunchaki o‘qimagan, bu dunyo deb u dunyoni unutgan, boylik, nafs botqog‘iga botgan bir kimsagina ham emas. U yer usti va yer osti boyliklari tunganmas, aqli va salohiyatl o‘z bilimi kuchi milliy an’ana va urf-odatlariga ega ammo uni bilmaydigan to‘g‘ri sarflamaydigan ilm o‘rganmaydigan uyqudagil millat timsoli hamdir. Agar boy, ya’ni uyqudagil millat uyg‘onmasa boydek yo‘qlikka ravona bo‘lishi haqidagi ogohlantirish.

Behbudiy bejiz bu dramani milliy fojia deb nomlamagan. Buning tagzamiri shu millat ertasiga borib taqaladi. Boyga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan, unga ahvolini anglatmoqchi bo‘lgan so‘zi rostlikka yo‘g‘rilgan, qalbi millat muhabbat va qayg‘usidan o‘zgasini bilmagan ziyoli Domulla obrazi esa Behbudiy-u Fitratlar, Qodiriy-u Cho‘lponlar edi. Haqiqatan ham, rost gapni so‘zlagan har doim ham har kimga yoqavermaydi. Uni har kim ham eshitavermaydi. Xuddi boydek ba’zan jahllari chiqadi, ba’zan eshitib eshitmaslikka olishadi. Zotan, Behbudiy o‘z publitsistik asarlarida ta’kidlaganidek: “Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, berilmas... Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘liga sa’y qilmasak, albatta, hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar... Allohning ipiga birlashingiz va tarqalib ketmangiz!” Asar qisqa bo‘lishiga qaramasdan, hayotiy voqealar tasvirlangan sahna asari sifatida muvaffaqiyatli namoyish etilgan.

REFERENCES

1. M. Behbudiy “Tanlangan asarlar” //To‘plovchi, so’zboshi va izohlar: B.Qosimov. - 2-nashri, tuzatilgan va to’ldirilgan.-Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999.-280 b
2. B. Qosimov. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”, T: Ma’naviyat, 2002.
3. <https://kh-davron>.